

Abdurahmon Jomiy ijodida bola tarbiyasi va murabbiylar faoliyati haqida

Lobar Berdiyeva

QXTXQTMOI

Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrası o'qituvchisi

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh yozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarda xazinasida saqlanayotgan ming- minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, minerologiya, kimyo, astronomiya, me'morchilik sohalariga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalaik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan – kam topiladi. Tarixiy yodgorliklar namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g'oyalar, ma'naviy- axloqiy qarashlar, hayot falsafasi bizni bugungi zamonamizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganiga amin bo'lamiz.

Asrlar davomida bola tarbiyasi, ustoz va murabbiylar mavzusida qanchadan-qancha kitoblar, hikmatnomalar, ibratli rivoyatlar yaratigan. Qadimgi faylasuflar, donishmandlar bola tarbiyasi, o'qituvchi faoliyatiga juda katta baho berib, uni jamiyatning poydevori deb ataganlar. Shu jumladan, Nuriddin Abdurahmon Jomiy ijodida ham ko'rishimiz mumkin.

Abdurahmon Jomiy – musulmon Sharqining katta shuhrat qozongan buyuk shoir va olim, eron mumtoz adabiyotining ulug' namoyondasi. Jomiy pedagogikaga oid katta meros qoldirgan. “Bahoriston” asarida ta'lim-tarbiya, bola tarbiyasi, o'qituvchi faoliyatiga alohida to'xtalib o'tadi. U yosh avlodni ilmi, ta'lim-tarbiyali bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Jomiy o'z asarlarida ilm inson uchun hayotga yo'l ochuvchi va uni o'z maqsadiga erishtiruvchi omil ekanligini bayon qiladi, bilimli egallashda muallim- ustzolar yuqori baholadi.

Jomiy bilim haqida fikr yuritir ekan, fanni va hunarni bolalikdan egallash kerakligini, bilim insonga hamma narsani oson va puxta anglab olishga yordam berishini, mehnatni yengillashtirishini aytadi va zarur ilmlarni egallashni da'vat etadi:

Eng zarur bilimni qunt bilan o'rgan,
Zarur bo'lmaganni axtarib yurma,
Zarurini hosil qilgandan keyin,
Unga amal qilmay umr o'tkurma.

Jomiy ta'lim oldiga yosh avlodni jamiyatga, odamlarga foydali xizmat qiladigan qilib kamol toptirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi va bilimni bolaning aqli qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblaydi.

Jomiy bola tarbiyasida quyidagilarga e'tibor berish lozimligini aytib o'tadi:

- bolani yoshligidan bilimga qiziqtirish, olgan bilimlarini o'zlashtirishini nazorat qilish;

- bolani mehnatga o'rgatish, chunki mehnat insonni hurmatga, ehtiromga sazovar etishini, unga quvonch, baxtli turmush baxsh etadi. Shu bilan birga, halol mehnat bilan hayot kechirishi lozim;

- bolalarda saxiylik fazilatini singdirish:

Agarda uyidan chiqarib bersa,
Boru yo'q yarimta nonini gado.
Yarim xazinasin bergan podshodan,
Saxiylik bobida shu gado a'lo.

- xushmuomalalik, dono so'zlar bilan gapirish, himmali va odil bo'lishga;
- manmanlik va kekkayishni insonning yomon illatlari ekanligi, ularga qarshi kurashishni o'rgatib boorish;

- yosh avlodning hunar va hunar egasi bo'lishi zarurligini, insonning qadr qimmatini uning mehnati bilan belgilanishini uqtiradi.

Jomiy kitobni avlodlar o'rtasini bog'lab turuvchi vosita deb ta'riflaydi. Kitob insonga yaqin do'st, ustoz va murabbiy ekanligini, bolaga yoshligidan boshlab kitob o'qishga muhabbat uyg'otish lozimligini aytib o'tadi:

Kitobga yuz o'girgin, ey, jigarim farzandim,
Kitobga ulfat bo'lgin, quloqqa olgin bu pandim.
Tanholikda munising, bilsang agar kitobdir,
Donolikning pandiga shu'la sochar kitobdir.

Bepul, beminnat senga ustzo bo'lib o'qitar,
Bilim bag'ishlab senga chigallaringni yechar.
Kitobdur yaxshi hamdam, teri yopingan olim,
Ish siridan goh so'zlab, ammo goho turar jim.
Uning ichi g'unchadek, varaqlardan liq to'la,
Har varag'i go'yoki, durdonadir bir yo'la.¹

Kitob avlodlar o'rtasidagi vositachi bo'lsa, ustozni avlodlar o'rtasidagi jonli vositachi deb ta'riflaydi. Muallim qanday sifatlarga ega bo'lishi kerakligini quyidagicha izohlaydi:

- bilimlarni va hayotiy tajribani o'z o'quvchilariga yetkazuvchi;
- chuqur bilimli, oq ko'ngil, axloqiy fazilatlarga ega;
- axloqiy fazilatlari bilan o'quvchilarga namuna bo'lishi;
- o'z bilimi bilan o'quvchilarining aqliy qobiliyatini rivojlantira oladigan bo'lishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosalashimiz lozimki, Jomiy asarlarida ilgari surilgan pedagogik fikrlar yoshlar tarbiyasi uchun muhim manba hisoblanadi. Ushbu g'oyalardan o'z o'rnida va oqilona foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida.- T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010. 400- b.
2. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y. 254-263 b.
3. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: O'qituvchi. 1997. 267-b.
4. Hoshimov K. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi. 1996. 265-b.

¹ Hoshimov K. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi. 1996. 265-b.